

*Saloyeva Go'zal Sayfiddin qizi*

*Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti*

*Navoiy ilmiy tajriba stantsiyasining*

*Sabzavot va poliz ekinlarining seleksiyasi bo'limi laboratoriya mudiri.*

***Baxshilloev G'olibjon G'aybullo o'g'li***

*Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti*

*Navoiy ilmiy tajriba stantsiyasining*

*Sabzavot va poliz ekinlarining agrotexnikasi bo'limi boshlig'i.*

## QOVUN YETISHTIRISHDA QOVUN PASHSHASINING ZARARI VA KURASH CHORALARI

**Annotatsiya:**Maqolada dalalarda qovun yetishtirish texnologiyasi haqida asosiy ma'lumotlarga to'xtalib o'tilgan. Qovunga ashaddiy zarar keltiruvchi zararkunandasi bo'lmish qovun pashshasining zarari, bioekologiyasi va unga qarshi turli kurash usullari va ularning samaradorligi haqidagi ma'lumotlar berilgan.

**Abstract:** The article focuses on the basic information about the technology of melon cultivation in the fields. Information about the damage, bioecology of the melon fly, which is a pest that causes severe to melons, and various methods of combating it and their effectiveness, is given.

**Kalit so'zlar:** Qovun, nav, zararkunanda, qovun pashshasi, qarshi kurash, agrotexnika, kimyoviy kurash, preparatlar, yaxoblash, almashlab ekish.

**Key words:** Melon, variety, pest, melon fly, control, agrotechnics, chemical control, preparations, application, crop rotation.

O'zbekiston ko'pgina ne'matlari qatori, o'zining qovun-tarvuzlari bilan ham mashhur. Dala maydonlarimizda ekib o'stirayotgan qovun navlaridan Dilxush, Kichkintoy, Oftob, Ko'k mag'iz, Qizil mag'iz kabi qovun navlarini chet elda ham yaxshi bilishadi.

Qovun turli o'lkalarda yetishtiriladi. Qovun issiqlikka, yorug'likka, tuproqning fizik xossalariga, turoqdagi oziqli moddalar miqdoriga nisbatan yuksak talabchanligi va shunga asoslangan o'ziga xos yetishtirish agrotexnikasiga ega. Qovunning urug'i +14-16 °C da una boshlaydi. Harorat bundan pasayganda urug'lar herda chirib qoladi, siyrak unib chiqadi. Shuning uchun poliz ekinlarini juda erta – yer qizimasdan ekish maqsadga muvofiq emas. Urug'ning unib chiqishi uchun maqbul harorat +20 °C hisoblanadi. Sutka davomida harorat +15-32 °C atrofida o'zgarib turishi mumkin. Ana shunday haroratda urug' ekilgandan keyin 5-6 kunda maysalar ko'rina boshlaydi.

Qovun yetishtirishda yuqori toifa va sinflarga mansub bo'lib, navdorligi 99% va unuvchanligi 90-95% dan kam bo'lmagan urug' ekiladi. Urug'lar ekishdan oldin osh tuzining 5% eritmasida bo'ktirib ivitiladi. Natijada urug'larning to'q va yirik fraktsiyalari suv ostiga cho'kib, mayda va puch urug'lar suv betiga qalqib chiqadi. Suv ostida qolgan urug'lar olinib toza suvga chayqab nomi qochguncha quritiladi. Urug'larni +40-50 °C hisobida 3-4 soat qizdirib olinsa, urug'larning kasalliklarga chidamliligi oshishi bilan bir qatorda onalik gullar ko'payib hosildorlikning oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qovun urug'ini yer harorati +14-16 °C ga yetganda ekishga kirishiladi. Ekish shakli qovun navi va sharoitga qarab

(210+70):2x70sm, (270+90):2x70sm, urug'lar 3-6 sm chuqurlikka ekiladi, 1 ga yerga qo'lda ekilganda urug' hajmiga qarab 2,5-3,0 kg, qatorlarga ekadigan seyalka bilan ekishda 5-6 kg urug' sarflanadi.

Qovun yetishtirish davrida unda turli kasalliklar va ko'plab zararkunandalar zarar yetqazadi. Qovun pashshasi qovunga eng katta zarar yetqazadigan zararkunanda hisoblanadi. Dunyoda poliz ekinlari turlaridan qovun o'simligi morfo-bioekologik xususiyatlari daladagi joylashgan vegetativ, generativ tana tuzilishi bo'yicha boshqa ekinlardan biroz farq qiladi. Natijada, mazkur agroiklim sharoitiga mos biotopda ko'plab hasharotlar turlari biotsenozning asosiy tarkibi sifatida hisobga olingan.

Ko'p yillik tadqiqotlarimizning natijasiga ko'ra qovun pashsha zararkunandasi may oyining uchinchi o'n kunligida va iyun oyining birinchi o'n kunligida qishlovdan chiqib, qovun o'simligining gullar hosil qilish davridan boshlab, biotopda to'planib, rivojlanadi. Zararkunanda poliz ekinlaridan asosan qovun mevalariga jiddiy zarar keltiradi. Shu sababli, qovun pashsha asosiy zararkunanda hisoblanib, to'g'ri qarshi kurash tadbirlari o'tkazilmasa, hosildorlikni 80-100% gacha kamaytirib yuborishi isbotlandi. Qovun dalalarida rivojlanadigan pashsha turlarining ozuqani qabul qilishi bo'yicha bir-biriga bog'liq rivojlanish bioekologiyasi shakllangan. Sababi, qovun pashsha qurtlari oziqlangan mevalari tez chirishlikdan mazkur fiziologik jarayon mavjud bo'lgan yillarda boshqa turlari yoppasiga ko'payishi hisobga olindi. Natijada, qovun pashshasi zarari tufayli chirishini boshlagan mevalarga boshqa pashsha turlari tuxum qo'yib, qurtlari rivojlanib, kelgusi avlod yetuk zoti uchib chiqadiganligi hisobga olindi. Daladan yig'ib kelingan g'umbaklarning 6,8-23% boshqa turlarni tashkil qildi.

Qovun pashshasi (miopardalis pardalina). Qovun pashshasi may oyining ikkinchi dekadasi dan ucha boshlaydi. Ona pashshalar qishlovdan chiqqandan so'ng 3-4 kun o'tgach, otalanib tuxum qo'yadi. Respublikamiz sharoitida 3-4 ta nasl berib. Qovun pashshasi poliz ekinlarining o'sish davrida onalik guli, tuguncha hamda mevalariga tuxum qo'yib, tuxumlardan chiqqan lichinkalari mevalar ichiga kirib zararlashi natijasida, olinadigan hosil iste'molga yaroqsiz xolga keladi. Poliz mevalarining qovun pashshasi bilan zararlanganligini tashqi ko'rinishidan aniqlash

qiyin. Meva ichidagi lichinkalarga qarshi kimyoviy kurash o'tkazish samara bermasligini hisobga olgan holda, pashshalarga qarshi kurashni olib borish zarur.

Agrotexnik tadbirlarda dalani o'simlik qoldiqlaridan tozalash, chuqur shudgor qilish, qator oralariga sifatli ishlov berish, kech kuzda sug'orish va erlarni yaxoblash, pashsha kuzatilgan dalalarga qovunni qayta ekmaslik tavsiya etiladi.

Kimyoviy kurash. Birinchi ishlovni o'simlikning gullash davridan boshlab, 3-4 marta purkaladi. Preparatlardan: Karbofos 50% k.e – 2 kg/ga, Fufanon 57% k.e – 1 kg/ga, Pilgrim 24,7% k.e – 0,2 kg/ga, Nestor 20% n.kuk – 0,3 kg/ga, Endjeo 24,7% sus.k.-0,3l/ga me'yorida almashlab purkash tavsiya etiladi. Preparatlarning birortasini 300 litr suvga aralashtirib ishlov berish tavsiya qilinadi.

Kimyoviy ishlov berilgan dalalarga 2-3 kun o'tkazib o'simlikni stressdan chiqarish va rivojlanishini tezlashtirish uchun tarkibida gumin, fulvo, gibberell va oziqa moddalar kompleksi (N,P,K) mikroelementlar tarkibida bor o'simliklarning o'sishini boshqaruvchi preparatlarning birortasi bilan ishlov berish tavsiya etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Toreniyazov.E.Sh., Yusupov. R.O. Qaraqalpaqstan agrobiotsenozo'nda eki qanatlo'lar (Diptera) toparo' tyrleri bio- ekologiyasi, rao'ajlano'o' e'zgesheliklari. Monografiya. – Nekis, «Qaraqalpaqstan». –2020. -145 b.
2. Yusupov.R.O. Qovun pashshasining biologiyasi, zarari va unga qarshi kurash tadbirlarini ishlab chiqish. Avtorefe- rat. q.x.f.f.d (PhD). 2018. 15 b.
3. Toreniyazov.E.Sh., Yusupov. R.O. Qovun biotopida tarqalgan ikki qanotlilar turkumi vakillarining rivojlanish bioekologiyasi. "Agro ilm" jurnal, - Toshkent, 2022 - yil, 6-ilova (85)-son.



4. “Agrobank” 100 kitob to’plam. 16- kitob. Qovun va tarvuz yetishtirish. – Toshkent : Tasvir, 2022. 29-37b.
5. Balashev N.N. “Polizchilik” Toshkent, 1975. b 17-25, 98-99.
6. Bo’riev X.Ch., Ashurmetov O.A Poliz ekinlari biologiyasi va etishtirish texnologiyasi Toshkent – 2000. 31-34-b.
7. Hakimov R.A., Halimova M., Rasulov F., Alimuhammedov S.S Qovundan yuqori sifatli hosil etishtirish agrotexnologiyasi bo’yicha tavsiyalar. Toshkent – 2017. b 3-10.